



## **DIZENTERIYA KASALLIGINI OLDINI OLISH CHORA-TADBIRLARI**

Komolidinova Gulnoza Sharifjon qizi

Abu Ali Ibn Sino nomidagi

Marg'ilon Jamoat Salomatligi Texnikumi

### **Annotatsiya:**

Mazkur maqolada yuqumli va xavfli bo'lgan ichak kasalliklaridan biri dizenteriya haqida fikr yuritilgan bo'lib, uning patologiyasi hamda anatomiyasи va profilaktikasi to'g'risida nazariy va amaliy ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** o'tkir yuqumli kasalliklar, dizenteriya, profillaktika, etiologiya, patogenez.

### **ASOSIY QISM**

Ko'pgina yuqumli kasalliklarning etiologiyasi va patogenezida allergik komponent muhim rol o'ynashi aniqlandi. O'tkir va surunkali ichak kasalliklari yuqumli kasalliklar orasida yetakchi o'rinni egallashda davom etmoqda. Ko'pincha o'limga olib keladigan yuqori foiz, kasallik doimiy va uzoq davom etishi, etiologiya va patogenezda ba'zi savollarining noaniqligi, shuningdek tezkor diagnostika usullarining yo'qligi - bularning barchasi ichak kasalliklari muammosini dolzarb qilib kelmoqda. Ko'pgina yuqumli kasalliklar allergiya mexanizmi bilan rivojlanadi. Shu sababli o'tkir va surunkali ichak kasalliklarining etiologiyasi va patogenezida patogen va shartli patogen ichak mikroorganizmlarining rolini o'rganish katta qiziqish uyg'otadi. Ichak kasalliklarida bakteriyalarga sezuvchanlik holatining oshishi va ichak kasalliklari patogenezida shartli patogen ichak florasining ayrim vakillarining ahamiyati, shuningdek, etiologiyasi dizenteriya bo'limgan ichak kasalliklarida teri allergik sinamalarining diagnostik ahamiyati to'g'risida manbalarda ma'lumot yetarlicha berilmagan<sup>1</sup>.

Dizenteriya kattalarda ham, bolalarda ham uchraydigan yuqumli kasallik bo'lib, uni dizenteriya gruppasiga kiruvchi biologik jihatdan bir-biriga juda yaqin qator mikroblar keltirib chiqaradi. Bu kasallik zararlangan ovqat yoki suv bilan organizmga dizenteriya mikroblari tushib qolishi tufayli paydo bo'ladi. Odam

<sup>1</sup> Odilova G. M., Rustamova Sh. A., Murotova Z. T. Klinikolaboratornye osobennosti techeniya kishechnykh infeksiy salmonellyoznoy etiologii u detey //Pediatr. – 2017. – T. 8. – №. S.

organizmi ko‘p asrlar mobaynida yuqumli kasalliklardan, jumladan dizenteriyadan himoyalanish mexanizmini takomillashtirib keldi. O‘z navbatida tajovuzkor mikroblar bemor organizmida va tashqi muhit sharoitida yashashga moslashib oldi. Anashu protsess natijasida hozir qator yangi xususiyatlari bilan farqlanuvchi dizenteriya mikroblari borgan sari ko‘p uchrab turibdi. Bu xususiyatlarning eng‘ asosiysi – ularning antibiotik va sulfanilamid preparatlarga hamda tashqi muhitga chidamliligidir<sup>2</sup>.

Dizenteriya tayoqchalari ichaklarda ko‘paygandan keyin kishi axlati bilan tashqariga ajraladi. Ular ayniqsa iflos nam choyshablarda, tuproqda, mahsulotlarda uzoq vaqtgacha saqlanadi. Qaynatilganda, quyosh nuri va dezinfeksiyalovchi vositalar ta’sirida tezda halok bo‘ladi. Bemor yoki bakteriya tashuvchi odamlar kasallik manbai hisoblanadi, ularning axlatida dizenteriya mikroblari bo‘ladi. Ular oziq-ovqat mahsulotlarini, suvni, buyumlarni va qo‘llarni zararlashi mumkin. Iflos qo‘l bilan suvga yoki ovqatga tegilsa, ana shu suvni ichgan yoki ovqatni yegan odamga dizenteriya yuqib qoladi, shuning uchun bu kasallikni ko‘pincha «iflos qo‘l kasalligi» deb atashadi<sup>3</sup>.

Agar bemor yoki bakteriya tashuvchi ozoda bo‘lmasa, dizenteriya qo‘zg‘atuvchilari uning iflos qo‘llaridan oziq-ovqat mahsulotlariga – non, mevalar, sut va boshqalarga osongina o‘tib, u yerda ko‘payadi. Sut bu mikroblarning ko‘payishi uchun ayniqsa qulay muhitdir. Sutdagi bitta dizenteriya bakteriyasi bir necha soat ichida yuz milliontagacha ko‘payishi mumkin. Endi ana shu sutni ko‘pchilik ichishi mumkinligini bir tasavvur qiling. Darhol dizenteriya epidemiyasi avj olvdi. Dizenteriya tayoqchalari organizmga tushgach, ularning bir qismi og‘izning o‘zidayoq halok bo‘ladi – so‘lak tarkibidagi lizotsim fermenti ularga halokatli ta’sir etadi. Mikroblarning ko‘pchiligi me’dada xlorid kislota ta’sirida yo‘q bo‘ladi. Tirik qolganlari ichakka o‘tib, u yerda tez ko‘payadi. Natijada paydo bo‘lgan toksin (zahar)lar ichak tomirlari devori o‘tkazuvchanligini oshiradi. Birinchi to‘sqidan eson-omon o‘tib olgan dizenteriya qo‘zg‘atuvchilari yo‘g‘on ichak shilliq pardasiga o‘rnashib oladi va u yerda ko‘payadi. Bu yashirin yoki inkubatsion davr bo‘lib, u bir necha soatdan 6-7 kungacha cho‘zilishi mumkin. Bunda hali kasallik alomatlari

<sup>2</sup> Sultonovich, B. K., Isrofilovna, M. N., Abdusalomovna, J. F., & Olimovna, O. P. (2022). A comparative study of nematoda facilities of shortage plants and trees in zaraфshan forest biotopes. Academicia Globe: Inderscience Research, 3(5), 1-5.

<sup>3</sup> Xujakulov, D. A., Yusupov, M. I., Shaykulov, X. Sh., & Boltaev, K. S. (2019). Sostoyanie vneshnego дыханиya u bolnykh detey so srednetyajel'm techeniem riщevogo botulizma. Voprosy nauki i obrazovaniya, (28 (77)), 79-86.

yuzaga chiqmaydi. Organizm mikroblar bilan kurashadi, organizm qarshiligi qanchalik sust bo'lsa, dizenteriya qo'zg'atuvchilari shunchalik tez ichakka kirib boradi va kasallik jadal rivojlanadi<sup>4</sup>.

Dizsnteriya mikroblarining ko'pgina turlari bor, shuning uchun odam o'z hayoti davomida dizenteriya bilan bir necha marta kasallanishi mumkin. Bolalarda dizenteriya har xil kechadi. Bolaning dizenteriya bilan og'riganini hamma vaqt darrov aniqlab bo'lmaydi. Bu kasallikning o'ziga xos kechishini ko'pchilik ota-onalar yaxshi biladilar. Kasallik isitma chiqishi, titrab-qaqshash, lohaslik bilan boshlanadi. Bir necha soatdan keyin bemor quсади, so'ngra qorin tutib-tutib og'riydi va hojatga borgisi keladi. Ichi suyuq, hidi qo'lansa, shilimshiq aralash, keyinroq esa, qon aralash keladi. Ikki yashardan oshgan bolalarda kasallik shu tarzda kechadi. Ko'krak yoshidagi bolada dizenteriya yashirin, notipik kechadi, ahlatida qon bo'lmaydi yoki bo'lsa ham juda oz bo'lganidan sezilmaydi, umumiy ahvoli va ishtahasi yomonlashadi. Kasallik sekin-asta rivojlanadi va dastlab oddiy dispepsiya o'xshab ketadi. Biroq bola tobora bezovta bo'la boshlaydi, ichi kelishidan oldin yig'laydi, qizarib ketadi, g'ingshiydi, ichi dam-badam keta boshlaydi, axlatida ko'plab ko'kimir shilimshiq, qon laxtalari paydo bo'ladi, ishtahasi pasayib ketadi. Bola ozib qoladi<sup>5</sup>.

## XULOSA

Shunday qilib, ichak kasalliklarining turli shakllari bo'lgan bemorlarni va sog'lom odamlarni kompleks bakteriologik, allergik va serologik tekshiruvlariga asoslanib o'tkir va surunkali ichak kasalliklarining rivojlanishida organizmning bakteriayaga sezuvchanligini oshishi muhim rol o'ynashini tan olish kerak. Bakteriologik, serologik va allergologik tadqiqotlar natijalarining bakteria allergenlar bilan mos kelishi teri sinamalarning o'ziga xosligini ko'rsatadi, bshuning uchun bu usulni shartli patogen ichak florasi vakillari keltirib chiqaradigan ichak kasalliklarining etiologiyasi va patogenezini aniqlashda diagnostika usullari arsenaliga kiritish imkonini beradi.

<sup>4</sup> Shodiyeva, D. (2023). BIO-MORPHOLOGICAL CHARACTERISTICS, GEOGRAPHICAL DISTRIBUTION AND USE IN TRADITIONAL MEDICINE OF CICHORIUM INTYBUS. GOLDEN BRAIN, 1(2), 252-256.

<sup>5</sup> Karabaev, A., & Bobokandova, M. (2022). REACTIVITY OF THE REPRODUCTIVE SYSTEM IN MATURE INTACT RATS IN THE ARID ZONE. International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research, 2(10), 50-55.



## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Odilova G. M., Rustamova Sh. A., Murotova Z. T. Klinikolaboratornye osobennosti techeniya kishechnykh infeksiy salmonellyoznoy etiologii u detey //Pediatr. – 2017. – T. 8. – №. S.
2. Sultonovich, B. K., Isrofilovna, M. N., Abdusalomova, J. F., & Olimovna, O. P. (2022). A comparative study of nematoda facilities of shortage plants and trees in zarafshan forest biotopes. Academicia Globe: Inderscience Research, 3(5), 1-5.
3. Xujakulov, D. A., Yusupov, M. I., Shaykulov, X. Sh., & Boltaev, K. S. (2019). Sostoyanie vneshnego dыхaniya u bolnyx detey so srednetyajelym techeniem rищevogo botulizma. Voprosy nauki i obrazovaniya, (28 (77)), 79-86.
4. Shodiyeva, D. (2023). BIO-MORPHOLOGICAL CHARACTERISTICS, GEOGRAPHICAL DISTRIBUTION AND USE IN TRADITIONAL MEDICINE OF CICHORIUM INTYBUS. GOLDEN BRAIN, 1(2), 252-256.
5. Karabaev, A., & Bobokandova, M. (2022). REACTIVITY OF THE REPRODUCTIVE SYSTEM IN MATURE INTACT RATS IN THE ARID ZONE. International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research, 2(10), 50-55.